

На этой основе этими и другими актами установлены правовые гарантии, предоставлены более 380 льгот и преференций, предусмотренных в более 70 нормативно-правовых актах.

В частности, более 70 льгот предусмотрены в налоговой, более 50 в таможенной, более 50 в банковской сферах и более 40 льгот и преференций предусмотрены в сфере иностранных инвестиций.

Отличительная особенность проводимой в Узбекистане инвестиционной политики состоит в том, что приоритет отдаётся инвестиционным проектам, направленным на создание новых высокотехнологичных производств, обеспечивающих глубокую переработку местных сырьевых ресурсов.

Целью улучшения инвестиционного климата является создание необходимых и приемлемых условий для повышения потенциала инвестиции, ускорения инвестиционной деятельности и, в конечном счете, создания возможности для подъема экономики, решения социальных проблем, повышения эффективности производства.

#### ***Список использованной литературы***

*Закон Республики Узбекистан «Об инвестиционной деятельности»*

*Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по кардинальному улучшению инвестиционного климата в Республике Узбекистан»*

*Маркова, Г.В. Экономическая оценка инвестиций: Учебное пособие / Г.В. Маркова. - М.: Курс, 2018. - 320 с.*

*Развитие предпринимательства: инновации, технологии, инвестиции: монография / [А. В. Шаркова и др.]. – 2–е изд. – Москва: Дашков и К, 2021. – 351 с.*

### **“YASHIL IQTISODIYOT” – KELAJAK IQTISODIYOTING ASOSI**

*H.T.Aliqulov, 1-bosqich magistrant  
Qarshi muhandislik - iqtisodiyot institute*

Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida yer yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Shu bois, bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Yer yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanmoqda. Bundan tashqari, tabiatda tabiiy ofatlar – toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari, zilzilalar kabilar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatini buzmoqda.

Bugungi kunda Afg'onistonda qurilayotgan Qo'shtepa kanali O'zbekistonning quyi Amudaryo hududi ekoliyasi va iqtisodiyotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Mavjud ekologik xavflarni kamaytirib, cheklangan resurslardan unumli foydalanish orqali “Yashil iqtisodiyotni” shakllantirish muhim omil hisoblanadi.

“Yashil iqtisodiyot”-bu insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirishga

olib keluvchi iqtisodiyotdir<sup>205</sup>. “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish suv resurslaridan nooqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, o’rmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim o’zgarishi kabi ekologik muammolarni hal etishda yordam beradi.

Xorijlik mutaxassislarning fikriga ko‘ra, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun ishlab chiqarishning turli sohalarida keng tarqalgan 10 ta ekologik ko‘nikma, ya’ni: dizaynerlik, liderlik sifatlari, boshqaruvchilik qobiliyati, energetik, shaharlarni rejalashtirish, landshaft dizayni, muloqot olib borish, chiqindilarni boshqarish, sotib olish va moliyaviy ko‘nikmalarga talab katta.

“O’zbekiston – 2030” strategiyasining 51-maqсади “Yashil iqtisodiyot”га о‘тish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirishdan iboratdir. Ushbu maqsad quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazish.

2. Sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini rivojlantirish va “ekologik markirovkalash” amaliyotini joriy qilish.

3. 3 GVt quvvatli 3 ta issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirish.

4. Ko‘p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish.

5. Shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg‘iga o‘tkazish.

6. Iqlim o’zgarishi sohasida barcha issiqlik gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish.

7. Issiqlik gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 30 foizga qisqartirish<sup>206</sup>.

“2019-2030-yillar davomida O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari esa quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;

2. Energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;

3. Iqlim o’zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;

4. “Yashil” iqtisodiyotni qo’llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Strategiyani amalgalashish natijasida 2030-yilga borib quyidagilarga erishish kutiladi:

- issiqlik gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog’iga yetkazish;

- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

<sup>205</sup>Yashil iqtisodiyot: Darslik. A.V.Vaxabov, SH.X.Xajibakiyev va boshqalar. – Toshkent.: “Universiet”, 2020.-262 b.

<sup>206</sup>O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni.

- yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiyligi sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;
- hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishslash darajasini 65 foizdan oshirish<sup>207</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jahon banki ishtirokida “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2030 yilgacha “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va “yashil o‘sish”ni ta’minlash dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning kam uglerodli rivojlanishini ta’minlash maqsadida O‘zbekistonda “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” (iCRAFT) loyihasi amalga oshiriladi. Ushbu maqsadda Jahon banki 46,25 mln AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratadi. Loyiha 2023-2028 yillar davomida respublika miqyosida amalga oshiriladi.<sup>208</sup> Shuningdek, 2023-yil oktyabr oyining boshida O‘zbekiston ilk bor 4,25 trillion so‘m miqdoridagi yashil suveren xalqaro obligatsiyalar hamda 660 million dollar miqdoridagi xalqaro obligatsiyalarini London fond birjasida joylashtirdi.

Yashil obligatsiyalar bo‘yicha kelib tushadigan mablag‘lar suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, temiryo‘l transporti va metro transportini rivojlantirish, sanitar tozalash ishlarini tashkil etish va aholi punktlarida tozalikni ta’minlash, shamol eroziyasiga va suv xo‘jaligi obyektlarining qum bosishiga qarshi ihota daraxtzorlari barpo etish kabi yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun yo‘naltiriladi<sup>209</sup>. Bu o‘z navbatida ekologik muammolarni kamayishiga ijobjiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, tarkibiy o‘zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish ichki va global jarayonlar hamda muammolarni hisobga olishni taqozo etadi. Shunaqa muammolardan biri respublikamiz iqtisodiyotida foydalanilayotgan texnologiyalarning tejamkor emasligi, ayniqsa chiqindilarni qayta ishslash sanoatining sustligi soha vakillari hamda olimlarni o‘ylantiradi. Har yili 110 mln. tonnadan ziyod CO<sup>2</sup> atmosferaga tashlanadi, buning natijasida tabiiy gazni eksport qilish borasida 4,5 mlrd. dollar yo‘qotilmoqda. Kuchlanishi 500 kvt (mln. kvt soat/bir yilda) bo‘lgan shamol energiyasiga asoslangan qurilma IES (issiqlik energiyasi stansiyasi)ga nisbatan zaharli moddalarni atmosferaga

<sup>207</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-soni qarori

<sup>208</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustdagagi PQ-271-soni qarori

<sup>209</sup>Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti. imv.uz

tashlashdan saqlaydi. Ya’ni 750-1250 tonna CO<sup>2</sup>, 8 tonna oltingugurt oksidi, 6 tonna chang tutun va 70 tonna kul-kukunlarni atmosferaga chiqarishdan saqlaydi.

Hozirgi vaqtida O‘zbekiston respublikasining faqatgina Toshkent shahrining o‘zida qattiq uy xo‘jaligi chiqindilarini to‘plash, qayta ishslash va ulardan mahsulot tayyorlash bo‘yicha 8 ta klaster ishga tushdi, uning quvvati yiliga 146000 tonna, kuniga 400 tonna xo‘jalik chiqindilarini qayta ishslashdan iborat zavod ishga tushdi. Qoraqalpog‘istonda yiliga 78000 tonna chiqindini qayta ishlovchi korxona qurildi. Navoiy shahrida kuniga 200 tonna chiqindini qayta ishlovchi zavod ishga tushdi. Bundan tashqari O‘zbekistonda 186 poligon ishga tushib, bularga 34 mln. tonna chiqindi yerga ko‘milmoxda<sup>210</sup>. O‘zbekistonda bir dehqon 10-13 ta odamni boqayotgan bir paytda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tgan “yashil” davlatlar – Shvetsiya, Finlyandiya va Janubiy Koreyada 1 dehqon 50-60 ta odamni boqmoqda<sup>211</sup>.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:*

*Yashil iqtisodiyot: Darslik. A.V.Vaxabov, SH.X.Xajibakiyev va boshqalar. – Toshkent.: “Universiet”, 2020.-262 b.*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi “2019 – 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son Qarori*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jahon banki ishtirokida “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 8-avgustdagい PQ-271-son Qarori*

*Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti. imv.uz*

*Экологические проблемы Узбекистана. <https://evolelium.com>. 2021*

---

<sup>210</sup> 2011 yil YUNEP tashkiloti hisobotidan olingan

<sup>211</sup> Экологические проблемы Узбекистана. <https://evolyelium.com>. 2021.